

DIZARTRIK BOLALARDA NUTQ MOTORIKASINI RIVOJLANTIRISHDA LOGOPEDIK MASSAJNING SAMARADORLIGI

Isodullayeva Iqboloy Sodiqjonovna

*Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va
san‘atshunoslik fakulteti, Inklyuziv ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi*

Shaxnoza Azizova

Maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi 3- kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dizartriya ega bolalarda nutq motorikasini rivojlantirishda logopedik massajning samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Logopedik massaj artikulyatsion apparat mushaklarining tonusini me‘yorlashtirish, harakatchanlikni oshirish hamda nutq faoliyatini yaxshilashda muhim korreksion vosita sifatida tahlil qilingan. Maqolada logopedik massaj turlari, qo‘llash usullari va korreksion natijalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: dizartriya, nutq motorikasi, logopedik massaj, artikulyatsion apparat, korreksion ish, kompleks yondashuv.

Abstract: This article discusses the effectiveness of speech therapy massage in developing speech motor skills in children with dysarthria from a scientific, theoretical and practical perspective. Speech therapy massage is analyzed as an important corrective tool for normalizing the tone of the muscles of the articulatory apparatus, increasing mobility, and improving speech activity. The article provides a scientific and theoretical justification of the types of speech therapy massage, methods of application, and correction results.

Kirish

Nutq buzilishlarining og‘ir shakllaridan biri bo‘lgan dizartriya bolalarda markaziy va periferik nerv tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu buzilish artikulyatsion apparat mushaklarining yetarli darajada innervatsiyalanmasligi, nutq harakatlarining noaniqligi va muvofiqlashmaganligi bilan tavsiflanadi. Natijada bolaning nutq motorikasi, tovush talaffuzi, nutq sur‘ati va nutqning tushunarliqligi buziladi. Shu sababli dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg‘ulotlarda nutq motorikasini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlarni qo‘llash dolzarb hisoblanadi. Bunday metodlardan biri logopedik massajdir.

So‘nggi yillardagi eng dolzarb muammolardan biri bu turli xil nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar sonining ko‘payishidir. Ular orasida juda keng tarqalgan buzilish dizartriya - nutqning fonetik tomonining buzilishi, bu markaziy asab tizimining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu buzilish sodir bo‘lganda, nutqning

motor mexanizmi buziladi. Dizartriya — nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Dizartriya termini grekcha soʻzdan olingan boʻlib, dis — boʻlak, arthon — biriktirish degan maʼnoni bildiradi. Dizartriya—bu markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishi hisoblanadi.

Dizartriya da nutq aʼzolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushiari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning surʼati, ritmi va ifodaliligida oʻzgarishlar kuzatiladi.

Dizartriyaning asosiy belgilari — artikulyatsiya, nafas va ovoz buzilishlarining namoyon boʻlish darajasi va xarakteridan kelib chiqadigan— tovushlar talaffuzi va nutqning prosodik buzilishlaridir.

Dizartrik bolalarda nutq motorikasining xususiyatlari

Dizartriya da nutq motorikasi quyidagi belgilar bilan namoyon boʻladi:

artikulyatsion mushaklar tonusining oshishi yoki pasayishi;
til, lab, yumshoq tanglay harakatlarining cheklanganligi;
nutq harakatlarining aniq va muvofiqlashgan emasligi;
ovoz chiqarish va nafas olishdagi buzilishlar.

Dizartriya ni bartaraf etish boʻyicha olib boriladigan logopedik taʼsir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, yaʼni artikulyatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishlash, umumiy davolash, davolovchi jismoniy — tarbiya, fizioterapiya va dori-darmonlar bilan davolash ishlari.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari A.G . Ippalitova, O.V. Pravdina, V.V. Ippalitova, Ye.M . Mastyukova G.V.Chirkina, I.I.Panchenko, va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1 — tovushlarning toʻgʻri talaffuzini oʻrgatish, yaʼni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqga qoʻyish va mustahkamlash;
- 2 — fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish;
- 3 — nutqning ritm , ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

- 4 — paydo boʻlgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini toʻgʻrilash.

Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati aʼzolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyatsion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

Dizartriya da olib boradigan logopedik ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi.

- 1 -bosqich tayyorlov bosqichi — bu bosqichning asosiy maqsadi:

— artikulyatsion apparatni, artikulyatsion tartibni shakllantirishga tayyorlash;

- bolaning ilk yoshida — nutqiy muloqot ehtiyojini tarbiyalash;
- passiv lug‘atni aniqlash va rivojlantirish;
- nafas va ovozda kamchiliklarni korrektsiyalash.

Bu bosqichning eng ahamiyatli vazifalari bu — sensor funksiyani, ayniqsa, eshitish idroki va tovushlar analizini rivojlantirishdir.

Korreksion ish metodlari va usullarini qo‘llash nutq rivojlanishi darajasiga bog‘liq. Bolada muloqot nutq vositalarining bo‘lmasligi boshlang‘ich ovoz reaksiyasini tezlashtiriladi va tovushlarga taqlid qilishga olib keladi, hamda unga kommunikativ ahamiyat tusini beradi.

Logopedik ishlar dori-darmonlar bilan ta’sir etish, flzioterapevtik davolash, davolovchi jismoniy tarbiyasi va massaj bilan qo‘shib olib boriladi.

Logopedik massajning mohiyati va vazifalari

Logopedik massaj — artikulyatsion apparat mushaklariga mexanik ta’sir ko‘rsatish orqali ularning funksional holatini yaxshilashga qaratilgan logopedik usuldir. U mushak tonusini me‘yorlashtiradi, qon aylanishini faollashtiradi va nutq harakatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Logopedik massajning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mushak gipertoniyasi va gipotoniyasini kamaytirish;
- artikulyatsion apparat harakatchanligini oshirish;
- nutq motorikasini faollashtirish;

Logopedik massajning asosiy turlari va uslublari

Dizartriyaning davolashda logopedlar quyidagi massaj turlaridan foydalanadilar:

1. Klassik logopedik massaj

Bu qo‘l barmoqlari bilan bajariladi va asosiy 4 ta usulni o‘z ichiga oladi:

Silash : Mushaklarni bo‘shashtiradi, psixologik aloqa o‘rnatadi.

Ishqalash : Chuqurroq to‘qimalarga ta’sir qilib, qon aylanishini tezlashtiradi.

Mushakni ezish: Mushak tolasining qisqarish qobiliyatini tiklaydi (ayniqsa gipotoniya — bo‘shashganlikda muhim).

Vibratsiya: Mushak tonusini boshqarishda qo‘llaniladi.

2. Zondli massaj (E.V. Novikova usuli)

Maxsus metall asboblari (zondlar) yordamida tilning ma’lum nuqtalariga ta’sir ko‘rsatiladi. Bu usul qo‘l bilan yetib bo‘lmaydigan til ildizi va yon tomonlarini samarali ishlashga imkon beradi.

3. Nuqtali massaj

Nutq apparati bilan bog‘liq bo‘lgan yuzdagi biologik faol nuqtalarga bosim berish orqali nerv impulslari uzatilishini stimullash.

2-bosqich .Boshlang‘ich kommunikativ talaffuz qobiliyatini shakllantirish bosqichi.

Bu bosqichning asosiy maqsadi:

- nutqiy muloqot va tovushlar analizi malakasini rivojlantirish;
- artikulyatsion apparat muskullarini bo‘shashtirish;
- og‘iz holatini nazorat qilish; artikulyatsion harakatni rivojlantirish.

Logopedik massajning samaradorligi

- artikulyatsion apparat harakatchanligini oshiradi;
- nutq motorikasidagi qo‘pol kamchiliklarni yumshatadi;
- ovoz chiqarish va nafasni muvofiqlashtiradi;
- logopedik mashqlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

Massajni artikulyatsion gimnastika, nafas mashqlari va fonetik korreksiya bilan kompleks qo‘llash uning samaradorligini yanada oshiradi.

- artikulyatsion harakatlarni rivojlantirish;
- ovozni rivojlantirish;
- nutqiy nafasni to‘g‘rilash;
- artikulyatsion harakatlarni sezish va maqsadga yo‘naltirilgan

Xulosa

Logopedik massaj dizartrik bolalarda nutq motorikasini rivojlantirish jarayonida muhim va samarali korreksion vosita hisoblanadi. Ushbu metod artikulyatsion apparat mushaklarining funksional holatini yaxshilash, mushak tonusini me‘yorlashtirish hamda nutq harakatlarining aniqligi va muvofiqlashuvini oshirishga xizmat qiladi. Logopedik massajni tizimli va bosqichma-bosqich qo‘llash natijasida til, lab va yumshoq tanglay mushaklarining harakatchanligi ortadi, nutq harakatlaridagi sustlik va zo‘riqish holatlari sezilarli darajada kamayadi. Bu esa tovush talaffuzining yaxshilanishi, nutq sur‘atining me‘yorlashuvi hamda nutqning umumiy tushunarlik darajasining oshishiga olib keladi. Kompleks yondashuv bolaning individual imkoniyatlari va nevrologik holatini inobatga olgan holda nutq motorikasini barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, logopedik massaj dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg‘ulotlarning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat nutq motorikasini rivojlantirish, balki bolaning umumiy kommunikativ faolligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodni erta yoshdan, muntazam va individual yondashuv asosida qo‘llash dizartrik bolalarning nutq rivojlanishida ijobiy va barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. L.R.Mo‘minova, M.Yu.Ayupova, “ Bolalarda dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etish texnologiyasi” T.: 2016
2. Ayupova M.Yu. “ Logopediya” T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
3. Волкова Л.С. “Логопедия “— Москва: Владос.
4. Лалаева Р.И “Дизартрия у детей” — Санкт-Петербург
5. Таптапова Д.А. “Логопедический массаж”
6. Mo‘minova L. Maxsus pedagogika va logopediya.
7. Novikova E.V. "Zondli massaj: Nutq rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish". Moskva, 2000.
8. Dyakova E.A. "Logopedik massaj". Moskva: Akademiya, 2003.